ARAB TILSHUNOSLIGIDA GRAMMATIK OMIL NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Xolmirzayeva Dilnoza Alisherovna

"Xadichai Kubro" ayol - qizlar o'rta maxsus islom ta'lim muassasasining arab tili o'qituvchisi .

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilshunosligining muhim nazariy tushunchalaridan biri bo‘lgan grammatik omil (*al-‘āmil*) nazariyasining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Grammatik omil tushunchasining Sibavayh asarlaridagi dastlabki ko‘rinishlaridan boshlab, Ibn as-Sarroj, az-Zajjojiy, Ibn Jinniy, Abdulqohir al-Jurjoniy, az-Zamaxshariy, Ibn Hishom kabi olimlar qarashlarida rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Shuningdek, Basra va Kufa grammatik maktablarining omil masalasidagi yondashuvlari, Ibn Mazo al-Qurtubiyning mazkur nazariyaga nisbatan tanqidiy qarashlari hamda XX asr arab tilshunosligida omil nazariyasini qayta baholash va isloh qilishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida grammatik omil nazariyasi arab grammatik tafakkurining shakllanishi, i’rob hodisalarini izohlash va sintaktik munosabatlarni tizimlashtirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilgani, ayni paytda uning ayrim jihatlari zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qayta talqin etilgani aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: arab tilshunosligi, grammatik omil, *al-‘āmil*, i’rob, amal, ma’mul, Sibavayh, Basra maktabi, Kufa maktabi, nahv, grammatik sabab, Ibn Jinniy, Ibn Mazo al-Qurtubiy, arab grammatik an’anasi.

KIRISH

Arab tilshunosligining nazariy o‘zagini tashkil etuvchi va uni jahon lingvistik an’analari orasida alohida ajratib turadigan tushunchalardan biri –

grammatik omil (arab. al-‘āmil, ko‘pl. al-‘awāmil) nazariyasidir. Nazariyaning mohiyati shundaki, arab tilida so‘z oxiridagi i’rob belgilarining (raf’, nasb, jarr, jazm) o‘zgarishi tasodifiy hodisa emas, balki har bir holatda uni yuzaga keltiruvchi muayyan lisoniy sabab – omil mavjud bo‘lib, unga bo‘ysunuvchi birlik ma’mul, bu jarayonning o‘zi esa amal deb ataladi. Shu tariqa gap tarkibidagi har bir bo‘lakning shakli boshqa bir bo‘lak bilan bog‘liq holda izohlanadi va jumla bir-biriga zanjirsimon bog‘langan omil-ma’mul munosabatlari tizimi sifatida tasavvur qilinadi.

Tezisning maqsadi – omil nazariyasining VIII asrdan XX asrgacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, uning shakllanishiga turtki bo‘lgan ilmiy-metodologik omillarni belgilash hamda nazariyaga bildirilgan tanqidiy qarashlarning lingvistik mohiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va matniy tahlil usullaridan foydalanildi; birlamchi manba sifatida Sibavayhning “al-Kitob”, az-Zajjojiyning “al-Iyzoh fi ilal an-nahv”, Ibn Jinniyning “al-Xasois”, Ibn Mazo al-Qurtubiyning “ar-Radd ala-n-nuhot” asarlari tanlandi.

ASOSIY QISM

Nazariyaning ilk kurtaklari (VIII asr).

Manbalarda i’rob belgilarini yozuvda qayd etish an’anasi Abu-l-Asvad ad-Dualiy nomi bilan, tilshunoslik atamashunosligining shakllanishi esa Xalil ibn Ahmad al-Farohidiy faoliyati bilan bog‘lanadi. Ammo omil g‘oyasi mustaqil nazariy tizim sifatida birinchi marta Sibavayhning “al-Kitob” asarida namoyon bo‘ladi. Sibavayh “omil” atamasini keyingi asrlardagidek qat’iy terminologik ma’noda ishlatmaydi; u ko‘proq “amal”, “ma’mul fih”, “mavze’” tushunchalari orqali fikr yuritadi va boblarni “bu shunday bobki, unda ism marfu’ bo‘ladi...”

tarzida, ya’ni i’rob holatining sababini ko‘rsatish tamoyili asosida quradi[1]. Shu bois G‘arb arabshunosligida “al-Kitob”ni omil nazariyasining tayyor bayoni emas, balki uning amaliy jihatdan qo‘llangan ilk namunasi sifatida baholash qabul qilingan[2].

Ta’lil bosqichi va nazariyaning aqliy asoslanishi (IX–X asrlar).

Al-Muborrad va Ibn as-Sarroj davriga kelib nahv ilmi mantiq va kalom ilmlarining metodologik ta’siri ostida qat’iy tizimga solindi. Ibn as-Sarrojning “al-Usul fi-n-nahv” asari nahvni asl (qoida) va far’ (unga tobe hodisa) munosabatiga asoslangan deduktiv tizim sifatida qurishga urinishning yorqin namunasidir.[3] Az-Zajjojiy esa “al-Iyzoh fi ilal an-nahv”da grammatik sabablarning uch darajasini – ta’limiy, qiyosiy hamda jadaliy-nazariy illatlarni ajratib, omil tushunchasini ilmiy dalillash nazariyasi bilan bog‘ladi.[4] Shu tariqa omil sof tavsifiy vositadan izohlovchi-nazariy kategoriyaga aylandi.

Basra va Kufa maktablari o‘rtasidagi ixtiloflar.

Omillarning miqdori va tabiati masalasi ikki maktab o‘rtasidagi asosiy bahs nuqtalaridan biriga aylandi. Basraliklar qiyos tamoyiliga qat’iy amal qilib, omillar doirasini cheklashga intilgan bo‘lsalar, kufaliklar sama’ – jonli nutq dalillariga tayanib, “al-xilof”, “as-sarf”, “al-mujovarat” singari qo‘shimcha omillarni tan olganlar. Al-Anboriyning “al-Insof fi masoil al-xilof” asari bu

[1] Сибавайҳ, Абу Бишр Амр ибн Усмон. Ал-Китоб / Абдуссалом Ҳорун таҳқиқи. 3-нашр. Ж. 1. – Қоҳира: Мактабат ал-Хонжий, 1988. – Б. 12–13.

[2] Carter M. G. Sibawayhi. – London: I. B. Tauris, 2004. – P. 44–47.

[3] Ибн ас-Саррож, Абу Бакр. Ал-Усул фи-н-наҳв / Абдулҳусайн ал-Фатлий таҳқиқи. Ж. 1. – Байрут: Муассасат ар-Рисола, 1988. – Б. 35.

[4] Аз-Зажжожий, Абулқосим. Ал-Ийзоҳ фи илал ан-наҳв / Мозин ал-Муборак таҳқиқи. 3-нашр. – Байрут: Дор ан-Нафоис, 1979. – Б. 64–66.

ixtiloflarning tizimli bayoni bo‘lib, undan omil nazariyasining maktablararo bahs sharoitida qanday sayqallanganini kuzatish mumkin[5].

Nazariyaning falsafiy chuqurlashuvi: Ibn Jinniy va al-Jurjoniy.

Ibn Jinniy “al-Xasois”da omil masalasiga tamoman yangi burchakdan yondashib, haqiqiy omil so‘z yoki harf emas, balki so‘zlovchining o‘zi ekanini, lafziy omillarga amalning nisbat berilishi esa majoziy xususiyatga ega ekanini asoslaydi[6]. Bu qarash omilni tashqi shakliy mexanizmdan nutqiy faoliyat kategoriyasiga yaqinlashtirgan. Abdulqohir al-Jurjoniy o‘zining nazm nazariyasida bu yo‘nalishni davom ettirib, i’rob belgilarining vazifasi ma’nolar orasidagi munosabatni ifodalash ekanini ta’kidlaydi; unga ko‘ra, grammatik bog‘lanishlar ma’no bog‘lanishlarining tashqi ko‘rinishidir[7]. Ayni paytda al-Jurjoniyga nisbat beriluvchi “al-Avomil al-mia” risolasi omillarni yuzta sanab, tasniflash an’anasini o‘quv amaliyotida mustahkamladi.

Nazariyaga qarshi chiqish: Ibn Mazo al-Qurtubiy.

Andalusiyalik zohiriy olim Ibn Mazo al-Qurtubiy “ar-Radd ala-n-nuhot” asarida omil nazariyasini butunlay bekor qilishga chaqirdi. Uning dalili shundan iborat ediki, so‘z jonsiz belgi bo‘lib, boshqa so‘zda haqiqiy ta’sir hosil qila olmaydi; i’robning sababi so‘zlovchining maqsadi va irodasidir. Shuningdek, u qiyosiy va jadaliy illatlarni, ya’ni ikkinchi va uchinchi darajali sabablarni ortiqcha deb hisoblab, nahvni soddalashtirishni taklif qilgan[8]. Bu qarashlar o‘z

[5] Ал-Анборий, Абулбаракот. Ал-Инсоф фи масоил ал-хилоф байна-н-наҳвиййийна: ал-басриййийна ва-л-куфиййийн. Ж. 1. – Қоҳира: Дор ал-Фикр, 1961. – Б. 76.

[6] Ибн Жинний, Абулфатҳ Усмон. Ал-Хасоис / Муҳаммад Али ан-Нажжор таҳқиқи. Ж. 1. – Қоҳира: Дор ал-Кутуб ал-Мисрия, 1952. – Б. 109–110.

[7] Ал-Журжоний, Абдулқоҳир. Далоил ал-ижоз / Маҳмуд Муҳаммад Шокир таҳқиқи. – Қоҳира: Мактабат ал-Хонжий, 1984. – Б. 55–57.

[8] Ибн Мазо ал-Қуртубий. Ар-Радд ала-н-нуҳот / Шавқий Зайф таҳқиқи. 2-нашр. – Қоҳира: Дор ал-Маориф, 1982. – Б. 76–78.

davrida keng tarqalmagan bo‘lsa-da, XX asrdagi nahvni isloh qilish harakati uchun nazariy tayanch vazifasini o‘tadi.

Tizimlashtirish va pedagogik qoliplashuv bosqichi (XII–XV asrlar).

Az-Zamaxshariy “al-Mufassal”da grammatik materialni ism, fe’l, harf va mushtarak masalalar bo‘yicha to‘rt qismga ajratib, omillarni ana shu tasnif ichida bayon etdi[9]. Ibn Ya’ish sharhi, Ibn Molikning “al-Alfiyya”si va nihoyat Ibn Hishom al-Ansoriyning “Mug‘ni-l-labib” asari omil nazariyasini o‘quv va tahliliy amaliyot uchun yakuniy shaklga keltirdi. Ushbu bosqichda omillarning barqaror tasnifi qaror topdi: lafziy va ma’naviy omillar; samoiy va qiyosiy omillar; shuningdek, omillarning amal quvvatiga ko‘ra darajalanishi (fe’l – ism al-foil – masdar – sifat al-mushabbaha)[10].

XX asr: nazariyani qayta baholash.

Ibrohim Mustafoning “Ihyo an-nahv” asari omil nazariyasini arab grammatikasi murakkablashuvining asosiy sababi deb baholab, uni raf’ va nasb kabi belgilarning vazifaviy talqini bilan almashtirishni taklif qildi.[11] Mahdi al-Maxzumiy va Shavqiy Zayf bu yo‘nalishni davom ettirdilar; xususan, Shavqiy Zayf tomonidan Ibn Mazo asarining nashr etilishi islohotchilik bahsini yangi bosqichga olib chiqdi. Tammom Hasson esa “al-Luga al-arabiyya ma’noho va mabnoho” asarida omil nazariyasiga tizimli muqobil sifatida qarinalar (nazariyyat al-qaroin) nazariyasini ilgari surdi: unga ko‘ra, grammatik ma’no yakka bir omil bilan emas, balki tartib, sig‘a, rabt, adot va matniy kontekst kabi

[9] Аз-Замахшарий, Жоруллоҳ. Ал-Муфассал фи санъат ал-иъроб / Али Бу Мулҳим таҳқиқи. – Байрут: Дор ва Мактабат ал-Ҳилол, 1993. – Б. 23.

[10] Ибн Ҳишом ал-Ансорий. Муғни-л-лабиб ан кутуб ал-аъориб / Мозин ал-Муборак ва Муҳаммад Али Ҳамдуллоҳ таҳқиқи. Ж. 2. – Дамашқ: Дор ал-Фикр, 1985. – Б. 415.

[11] Иброҳим Мустафо. Иҳё ан-наҳв. – Қоҳира: Матбаат лажнат ат-таълиф ва-т-таржама ва-н-нашр, 1937. – Б. 41–44.

bir necha ko‘rsatkichning birgalikdagi ishtiroki bilan aniqlanadi[12]. G‘arb va rus arabshunosligida ham omil nazariyasi arab grammatik tafakkurining o‘ziga xos formal-sintaktik modeli sifatida tadqiq etilgan[13]. O‘zbek arabshunosligida esa mazkur nazariya asosan o‘quv adabiyotlari doirasida, i’rob qoidalarini izohlash vositasi sifatida taqdim etib kelinmoqda[14].

XULOSA

1. Grammatik omil nazariyasi arab tilshunosligida tashqi ta’sirsiz, o‘z ichki mantig‘i asosida shakllangan mustaqil sintaktik model bo‘lib, uning vazifasi i’rob hodisasini tartibli va bashorat qilinadigan tizim sifatida tavsiflashdan iborat bo‘lgan.

2. Nazariyaning taraqqiyotida to‘rt bosqichni ajratish mumkin: amaliy qo‘llanish (Sibavayh), aqliy asoslash va illatlar tizimi (Ibn as-Sarroj, az-Zajjojiy), falsafiy-semantik chuqurlashuv (Ibn Jinniy, al-Jurjoniy) hamda pedagogik tizimlashuv (az-Zamaxshariy, Ibn Molik, Ibn Hishom).

3. Ibn Jinniy va al-Jurjoniy talqinlari omilni sof shakliy hodisa deb qarashdan voz kechib, uni so‘zlovchining kommunikativ niyati bilan bog‘lagani bilan ahamiyatlidir; bu qarashlar zamonaviy vazifaviy sintaksis g‘oyalariga ma’lum darajada yaqin turadi.

4. Ibn Mazo al-Qurtubiy tanqidi va XX asr islohotchilik harakati omil nazariyasining metodologik zaif tomonini – yashirin (muqaddar) omillarni ko‘paytirish orqali tahlilni sun’iy murakkablashtirish tendensiyasini ochib berdi.

[12] Таммом Ҳассон. Ал-Луға ал-арабия маъноҳо ва мабноҳо. – Қоҳира: Олам ал-Кутуб, 1994. – Б. 189–232.

[13] Owens J. The Foundations of Grammar: An Introduction to Medieval Arabic Grammatical Theory. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1988. – P. 38–41; Versteegh K. The Arabic Linguistic Tradition. – London; New York: Routledge, 1997. – P. 68–74; Рыбалкин В. С. Арабская лингвистическая традиция: истоки, творцы, концепции. – Киев: Феникс, 2000. – С. 214–220.

[14] Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 18.

5. Shunga qaramay, omil nazariyasi bugungi kunda ham arab tilini o‘qitish va klassik matnlarni i’rob qilish amaliyotida asosiy tahlil apparati bo‘lib qolmoqda; uni zamonaviy sintaktik nazariyalar bilan qiyosiy o‘rganish sharqshunoslik lingvistikasining istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ал-Анборий, Абулбаракот. *Ал-Инсоф фи масоил ал-хилоф байна-н-наҳвийийийна: ал-басрийийийна ва-л-куфийийийн*. Ж. 1. – Қоҳира: Дор ал-Фикр, 1961. – Б. 76.
2. Ал-Журжоний, Абдулқоҳир. *Далоил ал-ижоз* / Маҳмуд Муҳаммад Шокир таҳқиқи. – Қоҳира: Мактабат ал-Хонжий, 1984. – Б. 55–57.
3. Аз-Замахшарий, Жоруллоҳ. *Ал-Муфассал фи санъат ал-иъроб* / Али Бу Мулҳим таҳқиқи. – Байрут: Дор ва Мактабат ал-Ҳилол, 1993. – Б. 23.
4. Аз-Зажжожий, Абулқосим. *Ал-Ийзоҳ фи илал ан-наҳв* / Мозин ал-Муборак таҳқиқи. 3-нашр. – Байрут: Дор ан-Нафоис, 1979. – Б. 64–66.
5. Ибн Жинний, Абулфатҳ Усмон. *Ал-Хасоис* / Муҳаммад Али ан-Нажжор таҳқиқи. Ж. 1. – Қоҳира: Дор ал-Кутуб ал-Мисрия, 1952. – Б. 109–110.
6. Ибн Мазо ал-Қуртубий. *Ар-Радд ала-н-нуҳот* / Шавқий Зайф таҳқиқи. 2-нашр. – Қоҳира: Дор ал-Маориф, 1982. – Б. 76–78.
7. Ибн Ҳишом ал-Ансорий. *Муғни-л-лабиб ан кутуб ал-аъориб* / Мозин ал-Муборак ва Муҳаммад Али Ҳамдуллоҳ таҳқиқи. Ж. 2. – Дамашқ: Дор ал-Фикр, 1985. – Б. 415.
8. Ибн ас-Саррож, Абу Бакр. *Ал-Усул фи-н-наҳв* / Абдулҳусайн ал-Фатлий таҳқиқи. Ж. 1. – Байрут: Муассасат ар-Рисола, 1988. – Б. 35.
9. Иброҳим Мустафо. *Иҳё ан-наҳв*. – Қоҳира: Матбаат Лажнат ат-таълиф ва-т-таржама ва-н-нашр, 1937. – Б. 41–44.

10. Иброҳимов Н., Юсупов М. *Араб тили грамматикаси*. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 18.

11. Сибавайҳ, Абу Бишр Амр ибн Усмон. *Ал-Китоб* / Абдуссалом Ҳорун таҳқиқи. 3-нашр. Ж. 1. – Қоҳира: Мактабат ал-Хонжий, 1988. – Б. 12–13.

12. Таммом Ҳассон. *Ал-Луға ал-арабия: маъноҳо ва мабноҳо*. – Қоҳира: Олам ал-Кутуб, 1994. – Б. 189–232.

13. Carter, M. G. *Sibawayhi*. – London: I. B. Tauris, 2004. – P. 44–47.

14. Owens, J. *The Foundations of Grammar: An Introduction to Medieval Arabic Grammatical Theory*. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1988. – P. 38–41.

15. Рыбалкин, В. С. *Арабская лингвистическая традиция: истоки, творцы, концепции*. – Киев: Феникс, 2000. – С. 214–220.

16. Versteegh, K. *The Arabic Linguistic Tradition*. – London; New York: Routledge, 1997. – P. 68–74.